

XIVA JADIDCHILIGI YANGI TALQINDA

Vapayeva Yorqinoy Matyakubovna

Xalq deputatlari Yashnobod tuman kengashi deputati

E-mail: azizailhomovna2298@mail.ru

Tel: +998909750072

*G’aflatda yotgan xalqni uyg’otmoq uchun uning tarixini uyg’otmoq lozim
(Avgustin)*

Kalit so’zlar: Ibroxim Sulton matbaachi, “Jamiyati xayriya”, “Yosh xivaliklar”, “Известия”, “Nisobus-sibyon”

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligida jadidchilikning vujudga kelishi, ularning yetakchilari, faoliyati hamda xonlikdagi ijtimoiy-siyosiy hayot tasvirlangan. Shuningdek, Yosh xivaliklar partiyasining siyosiy faoliyati va tugatilishi haqida to’xtalib o’tilgan.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Xiva xonligidagi asosiy ijtimoiy harakat-jadidchilik harakati bo’ldi. Rus bosqinidan keyin mustaqillikning yo’qotilishi, siyosiy haqsizlik vaadolatsizlik butun jamiyat axdini Rossiya davlatiga qarshi kuchli muxolifatga aylantirdi. Bunday qarashlar orasida oddiy xalq vakillaridan tortib yuqori mansab egalarigacha mavjud edi. Xiva jadidchiligi marifatparvarligining rivojlanishida dastlabki davrda Komil Xorazmiy va Muhammad Rahimxon II ning o’rni beqiyosdir. Sababi ular tomonidan tashkil qilingan matbaachilik bu harakatlarning debochasi bo’ldi. 1874-yili Muhammad Rahimxon II ning tashabbusi bilan Xivaga Rossiyadan toshbosma dastgohi keltirildi. Erondan Ibroxim Sulton matbaachi saroyga taklif qilindi. Chunki Sharqda birinchi matbaa 1832-yil Eronda vujudga kelgan edi. Shuningdek, musiqashunos, Pahlavonniyoz Mirzaboshi tomonidan xonni majlislar tuzishga hamda tarixchiyu, taraqqiyvarlar bilan fikr almashishga, mamlakatdagi zo’ravonliklar va poraxo’rlikni tugatishga harakat qilindi.¹

Xiva xonligida ta’lim tizimini isloh qilish masalasi ancha oson o’z yechimini topdi. Buning sababi Xiva xoni Muhammad Rahimxon II texnologik yangiliklarni maqullovlchi madaniyat homisi bo’lganidir. Xonlikda yangi usul maktablarining ochilishi Buxorodagidek hokimiyat vakillarining qarshiligiga duch kelmadidi. Feruzning o’zi maktablar tashkil etilishini qo’llab-quvvatladi va ko’plab yuqori martabali amaldorlar undan o’rnak oldi. Xiva xonligida ilk rus-tuzem maktabi 1884-yilda Xiva xonining ko’magida ochilgan, dastlabki jadid maktabiga esa, 1904-yil 10-noyabrda

¹ Otamurod Qo’shjonov, Ne’matjon Polvonov Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xarakatlar (XIX asr 2-yarmi-XX asr 1-choragi), -T: “Abu matbuot-konsalt” 2007, 388-b

asos solindi. Unda Turkiyadan Xusayn Qo'shayev o'qituvchilik qilgan. 1906-1907-yillarda qizlar uchun maktab tashkil etildi. Jadidchilikning Xorazm maktabini yaratilishida Munis va Ogahiy tomonidan asos solingan, Bayoniy boshchilik qilgan tarjimachilik va tarixchilik maktablari asosiy o'rin tutgan bo'lib, elitaning Xorazm o'tmishiga qiziqishi ham bunga yordam berdi.²

Qolaversa xonlikning bosh vaziri, o'zining ilg'or qarashlari bilan tanilgan Islom Xo'ja ta'lim islohoti bo'yicha faol ish olib bordi, u Xivadagi jadidchilik faoliyatini qo'llab-quvvatlagan. Xiva ma'rifatchilari va xarakat yetakchilari, xususan, Bobooxun Salimov, P. Yusupov say-xarakatlari bilan Yangi Urganch, Qo'ng'iroq, Gurlan, Shovotda maktablar ochildi. Bunga yangi usul maktablari tashkil etish uchun mablag' yig'gan "Jamiyati xayriya" ham imkon yaratdi. B. Salimov, B. Raximov boshlang'ich maktablар uchun o'qish bo'yicha dastlabki darsliklarni yaratishdi.³ Xiva xonligida jadid matbuoti yo'qligiga qaramay, maxalliy ziyo axli Usmon sultanati, Eron va Rossiyadan, shuningdek, Toshkent, Samarqand va Buxoroda chop etilgan gazeta va jurnallari bilan tanishish imkoniga ega bo'lганлар.

Xiva xonligida jadidchilik XX asr boshlarida biroz boshqacha tarixiy sharoitlarda yuzaga kelgan. Bu yerda jadidchilik xarakati ikkita oqimdan iborat edi. O'ng oqim xonlikda rivoj topgan savdo-sanoat korxonalari egalari va yirik yer egalarini birlashtirgan. Unga Islom Xo'ja- Asfandiyorxonning bosh vaziri boshchilik qilgan. Ular o'z oldilariga xon hokimiyatini saqlab qolgan xolda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali bozor munosabatlarini rivojlantirish yo'llarini kengaytirishni qo'yanlar. Xiva jadidchiligining so'l oqimiga esa, mayda burjuaziya vakillari, hunarmandlar, ulamolar va aholining o'rta qatlami kirgan. Uning raxbari Xiva xonligi shayxulislomi Bobooxun Salimov edi degan qarashlarni D. Alimova⁴, B. Rasulov, R. Shamsutdinov⁵ Polvoniyoz Hoji Yusupov⁶lar ilgari surgan.

Biroq, Otamurod Qo'shjonov, Ne'matjon Polvonov⁷lar o'z tadqiqotlarida "akademik Baxtiyor Nazarov jadidchilik harakati tarixining tarixshunosligi haqida to'xtalib: 60-80-yillarda birmuncha siljishdek ko'ringan jadidlarni o'ng va so'llarga ajratish jadidchilikning sho'ro tuzumini yoqlash va uni mustaxkamlash yo'liga o'tgan vakillarini oqlash tadorigidagi ustomonlikdan boshqa narsa emas edi deb fikr bildiradi. Bu fikrlar asosli ham edi, ayniqsa, Xiva jadidlarini o'ng va so'l oqimlariga bo'lish o'rinni emas. Chunki yuqoridagi adabiyotlarda o'ng oqimga vazir rahbarligidagi elita qatlam vakillari kiritilsa, so'l oqimga Bobooxun Salimov, Xusaynbek Matmurodov,

² A. Rasulov, A. Isoqboyev, D. Nasreddinova. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida tatarlar. -T: "Turon-Iqbol" 2019, 107-b

³ Dilorom Alimova. Jadidchilik fenomeni, -T: "Akademnashr" 2022, 16-b

⁴ Dilorom Alimova. Jadidchilik fenomeni, -T: "Akademnashr" 2022

⁵ B. Rasulov, R. Shamsutdinov Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri XX asr boshlari) Andijon, 1995

⁶ Polvoniyoz Hoji Yusupov Yosh xivaliklar tarixi. Urganch "Xorazm" 1999

⁷ Otamurod Qo'shjonov, Ne'matjon Polvonov Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xarakatlar (XIX asr 2-yarmi-XX asr 1-choragi), -T: "Abu matbuot-konsalt" 2007, 388-b

Polvoniyoz hoji Yusupovlar kiritiladi. Aslida ular ham yirik yer egalari, boy qatlam vakillaridan bo'lgan va ayni vaqtida ikkala guruh vakillari ham yangilik, taraqqiyot tarafdori bo'lgan edi. Shu jihatdan ham ularni ajratish maqsadga muvofiq emas.

Xiva jadidchiligining siyosiy tus olishiga asosiy sabab Asfandiyorxon harakatlari bo'ldi. Hukmronligining dastlabki davrida ichki g'arazi bo'lishiga qaramay, Islomxo'ja harakatlarini qo'llab-quvvatlayotgan bo'lib ko'rinishga harakat qilgan bo'lsada, qulay vaziyat tug'ilishi bilan Islomxo'jaga qarshi kuchlar yordamida uni hokimiyatdan yo'qotadi. Bu harakatlar jadidchilikning yanada kuchayishiga asosiy omillardan bo'ldi.

1914-yil avgustida Xivada jadidlari tomonidan “Yosh xivaliklar” partiyasi tashkil etildi, unga Polvoniyoz hoji Yusupov rahbarlik qilgan. U o'z faoliyati davomida ro'y bergen barcha hodisalarni kundalik daftariga xotiralar sifatida yozib borgan va asar shu nom ostida chop qilingan. Partiya dasturida Xivada konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish va demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadi qo'yilgan. 1917-yil 5-aprelda Xiva xoni Asfandiyorxon manifestni imzolashga majbur bo'ldi. Isloxotlarning borishini nazorat qilish uchun xon xuzurida 49 nafar vakildan iborat nazorat organi “Idorai mashruta” tuzilgan. Xon xuzurida parlament ko'rinishidagi Majlis (raisi B. Salimov) va Nozirlar kengashi (raisi Husaynbek Matmurodov) tashkil etildi.⁸

D. Alimova, B. Rasulov, R. Shamsutdinov kabi tarixchilar yosh xivaliklarning aniq bir dasturi bo'lмаганligini qayd qilishadi. Aslida Polvoniyoz Hoji Yusupov partiyaning dasturi bo'lganligi, unda o'z davrining dolzarb muammolari ko'tarilganligini qayd qiladi. Dasturda Xiva viloyatini Turkiston bilan birlashtirish; xonlar, beklar qo'lidagi ortiqcha mulkni xalqqa berish; bepul maktablar ochish; kasalxonalar qurish kabilar keltirilgan edi.⁹

1917-yil martda Mirbadalov tomonidan miting o'tkazildi. Unda Yosh xivaliklar partiyasi “dindan qaytganlar” deb e'lon qilinib, “Majlis” tarqatib yuborildi va rahbarlari qo'lga olindi. Rahbarlardan Nazir Sholikorov “men rus fuqarosi bo'lganimdan meni xon sudi emas, rus sudi so'roq qilsin deb”, sud jarayonidan chiqib ketib omon qoladi. Polvoniyoz Hoji Yusupov esa, bir rus askari tomonidan suddan qutuladi va qochib o'z faoliyatlarini davom ettiradi.¹⁰

1919-yili “Yosh xivaliklar” partiyasining yangi dasturi qabul qilindi, 1920-yil 8-fevralda Toshkentdag'i “Известия” gazetasida e'lon qilindi. U 12 banddan iborat bo'lib, unda asosan Xivada xon hokimiyatini ag'darish edi. Ammo Xivadagi vaziyatlar, Junaidxon hatti-harakatlari bu intilishlarni yo'qqa chiqardi. 1920-yilga kelib Xivadagi barcha harakatlarga va xon hokimiyatiga chek qo'yildi. D. Alimova, Xolboyev va Sodiqovlar o'z tadqiqotlarida Turkiston jadidlarining haddan tashqari

⁸ Dilorom Alimova. Jadidchilik fenomeni, -T: “Akademnashr” 2022, 44-b

⁹ Otamurod Qo'shjonov, Ne'matjon Polvonov Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xarakatlar (XIX asr 2-yarmi-XX asr 1-choragi), -T: “Abu matbuot-konsalt” 2007, 388-b

¹⁰ Polvoniyoz Hoji Yusupov Yosh xivaliklar tarixi. Urganch “Xorazm” 1999

intilishi va Buxoro hamda Xiva jadidlarining qarama-qarshi siyosiy qarashlarining nomutanosibligi 1920-yilda jadidchilikning ayanchi holda yakun topishiga olib keldi degan qarashni ilgari surishgan. F. Qosimov ham o'zining Buxoro amirligi tarixiga oid tadqiqotida shunday xulosaga kelgan.¹¹

XX asr boshlarida Xiva jadidchiligi borasidagi tadqiqotlarda ikkita yo'naliш ko'zga tashlanadi. Bir guruh tadqiqotchilar Xiva jadidlari haqida hech qanday fikr bildirmagan holda, Podsho Rossiyasi va sovet tuzimining Xiva xonligidagi ijobjiy rolini ko'rsatishga harakat qilindi. Yosh xivaliklar rahbarlarining istiqlol va taraqqiyot yo'lidagi faoliyatini qoralab, ularni burjua millatchiligidan, shuningdek, yosh xivaliklar mehnatkashlarni ijtimoiy jihatdan to'liq ozod qilishga harakat qilmaganlikda, doimo mulkdorlar bilan kelishishga tayyor turganlikda ayblanadilar. Ikkinci guruh, jumladan, G. Nepesov, M. Abdullayev tadqiqotlarida Yosh xivaliklar turkman urug'sardorlari Qo'shmamedxon, G'ulom Alixon faoliyatiga xaqqoniy baxo berib, ularning ta'sirini ko'rsatib berdi.¹²

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi adabiyotlarni tahlil qilgan holda, Xivada jadidchilik mavjud bo'lgani, ammo hukmdor va yuqori elita qatlama yangiliklar tarafdori, islohotlarni qo'llab-quvvatlagani sababli dastlabki davrda bu harakat to'siqlarsiz va qiyinchiliklarsiz kechganligini ko'rishimiz mumkin. Keyingi davrda esa bu harakat siyosiy tusga kirib, qarshiliklarga duch keldi, bunga Rossiyadagi holatlar ta'siri ham bo'ldi albatta. Xiva jadidchiligining keng yoyilmaganligi, oddiy xalq vakillarining harakatdagi faoliyati sustligiga asosiy omillardan biri, bu Xiva jadidchiligining matbuoti yo'qligi edi. Aslida, Xiva xonligida ikki matbaa-Xivada ilk bor tashkil topgan Rahimxon II saroyidagi litografiya, keyinchalik, Podshoi zamon tipo-litografiyasi" deb nomlanib, uning birinchi bosma maxsuli Farobiyning "Nisobus-sibyon" (Bolalar nasibasi) asari bo'lgan. Ikkinci bosmaxona Petro-Aleksandrovskeagi K.V Novikov matbaasi bo'lishiga qaramasdan jadid gazeta va juranllariga asos solinmadni.¹³ Xiva jadidlari o'z qarashlarini kitoblari orqali nashr qildirdi, bundan esa oddiy qatlama vakillari har doim ham xabardor bo'lib, tanishish imkoniga ega bo'lmasdi. Jadidlarning asosiy kamchiligi ham shunda bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dilorom Alimova. Jadidchilik fenomeni, -T: "Akademnashr" 2022, 16-b
2. B. Rasulov, R. Shamsutdinov Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri XX asr boshlari) Andijon, 1995

¹¹ K. Bazarbayev, A. Gumadullayeva Jadidism Phenomenon in Central Asia. SienceDirect CY-ICER 2013, 877-b

¹² N.Polvonov Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi (1900-1924) monografiya, -T: "Akademnashr" 2011, 7-b

¹³ Aziz Boboxonov. O'zbek matbaasi tarixidan. -T: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at" 1979, 114-b

3. Polvoniyozi Hoji Yusupov Yosh xivaliklar tarixi. Urganch “Xorazm” 1999
4. Otamurod Qo’shjonov, Ne’matjon Polvonov Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xarakatlar (XIX asr 2-yarmi-XX asr 1-choragi), -T: “Abu matbuot-konsalt” 2007, 388-b
5. K. Bazarbayev, A. Gumadullayeva Jadidism Phenomenon in Central Asia. SienceDirect CY-ICER 2013, 877-b
6. Aziz Boboxonov. O’zbek matbaasi tarixidan. -T: “G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at” 1979, 114-b
7. A. Rasulov, A. Isoqboyev, D. Nasretdinova. Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotida tatarlar. -T: “Turon-Iqbol”2019, 107-b
8. I. Yoqubov Xiva jadidlarining ma’rifiy qarashlari//Xiva-jaxon madaniyati durdonasi.Konferensiya materiallari. Urganch, 1997
9. Q. Rajabov Buxoro va Xorazm Xalq respublikalari: davlatchilikning demokratik shakli, -T: “Sharq” 2001